


85.1  
T 69

B.TOJIEV, S.MAHKAMOVA



QAL SVIR

DASTLABKI SABOQLAR

26.1  
- 69

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RSTA MAHSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI


San'at fakulteti "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" kafedrasи

**Bahrom Tojiev,  
Saodat Mahkamova**

# **QALAMTASVIR**

**DASTLABKI SABOQLAR**

**Uslubiy qo'llanma**



0129957/1

Toshkent-2013

## **Annotasiya**

“Qalamtasvir” asoslarini o’rganishda dastlabki saboqlarga qaratilgan ushbu o’quv- uslubiy qo’llanma orqali aniq va ishonchli bilimga ega bo’lishi mumkin. Rasm ishlashda eng muhim bo’lgan shakl, ufq chizig’i, uch o’lchamli, hajmli shaklni ikki o’lchamli qog’oz sathida tasvirlash kabi zarur mavzularni aniq va sodda tilda tushuntirib beradi. Tasviriy san’atni o’rganayotgan har bir o’quvchi, talaba shuningdek ihlosmand avvalo geometrik shakllardan boshlab o’rganadi, ushbu o’quv uslubiy qo’llanmada ham kub, slindr, ko’ptomonlama prizma, shar kabilarni rasmini ishlash borasida bajariladigan asosiy bilimlarni beradi.

**Mualliflar :** dotsent- Bahrom Tojiev

o’qituvchi-Saodat Mahkamova

**Taqrizchilar :** U.B.Xakimov- Xodjaev nomidagi Respublika dizayn kolleji o’quv ishlar bo'yicha direktor muovini.

S.Abdirasilov-Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti


**Matn teruvchi:** Durdona Hikmatova -TDPU “San’at” fakulteti talabasi

Uslubiy qo’llanma Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy-uslubiy kengashining 2012 yil 13-dekabr 5- raqami qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Qadimdan qalamtasvirga tasviriylar san'atning asosi sifatida qaraladi. Uyg'onish davrining ulug' haykaltaroshi va rassomi Mikelanjelo: "Qalamtasvir - bu barcha tasvir turlarining manbai va qalbidir" degan edi. Boshqacha qilib aytganda esa qalamchizgi - barcha narsaning asosi, poydevoridir. Hozir biz amal qilayotgan qalamtasvir maktabi umumjahon san'ati xususan Sharq tasviriylar san'ati an'analarini davom ettirib, rassomlik maktabini ilmiy asosga qo'yish, tasviriylar san'atga o'rgatishning uslubiyatini va nazariyasini ishlab chiqishga intilgan o'tmishning ulug' ma'rifatparvarlar hamda ustoz-rassomlarning bilim-tajribalariga asoslanadi. Ma'lumki, Uyg'onish davrining rassomlari ham san'atning fonda alohida rivojlanishini tasavvir qila olmaganlar. Keyinchalik rassomchilik maktabi ilgarigi avlodlar tomonidan to'plangan barcha narsani ijodiy qabul qilib, tasviriylar san'atga o'rgatishning metod va prinsiplarini tizimini sifat jihatdan boyitdi. Haqqoniy tasvirlashning san'at maktabi qalamtasvir chizishga o'rgatish uslubining asosiga har bir narsaning o'ziga qarab chizish, borliqi bilish, his etish va o'rganishni qo'yadi. Atrofni o'rab turgan dunyonи haqqoniy tasvirlashni istagan rassom uning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Biror narsani to'g'ri chizish uchun, rassom uning o'ziga xos xususiyatlarini idroklay bilishi, tushunishi kerak. Tasviriylar san'at (qalamtasvir, rangtasvir) o'qituvchisi ko'pincha talabaga, o'quvchiga narsani o'ziga qarab chizishni buyurib, uning barcha jihatlarini to'la- to'kis tushuntirib, izohlab bermay qanday ko'rayotgan bo'lsalar shunday chizishga o'rgatadi. Bu o'quv qalamtasviriga nisbatan noto'g'ri qarashning natijasidir. Vaholanki buyumning o'ziga qarab chizish yosh rassom oldiga to'g'ri ko'ra bilishga o'rganish, narsani tushunib tasvirlashni maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun rasm chizish jarayonida qiyofani o'rganish va tushunish natijalari barcha o'quvchilar uchun ob'ektiv bo'lishi zarur. Hamma o'quvchilar chizilayotgan narsani to'g'ri tasvirlashlari tuzilma xususiyatlariga jiddiy e'tibor berishlari kerak. Qalamtasvir chizishni o'rganayotgan kishi avvalombor narsaning tashqi belgilari orqali uning shakli qurilishining o'ziga xos tomonlarini, ya'ni "ichki ko'rinishi" tuzilishini yetarlicha tushunib olishi juda muhimdir. Bu unga shakl tasvirini sathda (qog'ozda) to'g'ri chizishda yordam beradi. Shunday qilib, asliga qarab geometrik jismni, masalan kubni, silindr, prizmani chiza turib, qalamtasvir chizishni

endi o'rganayotgan talaba yuzaki kuzatish bilan cheklanib, uning tasvirini qisqarib ko'rinishini noto'g'ri aks ettirishi ehtimoli ham bor. Tajribali talaba esa avval qiyofaning "sinchi"ni ichki tuzilishi, ko'rinnmayotgan ammo xis etib tasvirlash mumkin bo'lgan qismlarini ham ko'rsatadi, ya'ni kubning sathlari fazoda qanday joylashishini ko'z oldiga aniq keltira oladi.




Shuning uchun yosh rassomning bu masalani hal qilishdagi birinchi eng muhim maqsadi – odiiy geometrik jismlarning tuzilishidagi o'ziga hos inususiyatlarini to'g'ri ko'rish, idroklassh va to'g'ri tushunib olishdan iborat. Chunki kelajakda u gipsdan yasalgan turli rozetkalarning ayrim namunalari, "kapitel", murakkab shaklga ega bo'lgan "vaza", odam hoshining gips nusxasi, yoki qad-qomati kabi ancha chizish qiyin bo'lgan buyumlar va qiyofalarning tahliliga o'tganida geometrik jismlarni og' ichki tuzilishini tahlil qilishdan orttirgan bilim, ko'nikma va malakalardan unumli foydalananishga to'g'ri kela'di. Aks ettirilgan qalamtasvirning sifat darajasi ham shaklning ichki tuzilishini, asosini qanchalik to'g'ri topilganligiga bog'liq. Shuning uchun "asosi sifatli rasm ekan" degan ibora rassomlar o'rtasida tez-tez uchrab turishi bejiz emas. Bu so'zlar orqali mutahassislar yosh musavvirlarning ishlagan shakl tuzilishidagi o'ziga

xos belgilarini to'g'ri aniqlab tasvirlay olishlariga ijobiy baho berishadi. "Konstruksiya" so'zi lotincha "construotio" dan kelib chiqqan bo'lib, "qurilish" "struktura" bo'laklarning o'zaro joylashishi va farqini bildiradi. Narsaning o'ziga qarab chizilayotgan vaqtida predmetning shakl "sinchini" tahlit qila turib uning qurilishini barcha asosiy shuningdek ko'zga ko'rindigan va ko'rindigani bo'laklari bilan birgalikda aniq tasavvur qilinishi zarur. Ya'ni narsaning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, rasm chizuvchi uni shunchalik ko'p, hamda jiddiy o'rganishiga to'g'ri keladi. Agar o'quvchi, talaba aslidan rasm chizayotganida buyum shaklining tashqi va ichki tahlilning birligiga amal qilsa, uning tasviri to'g'ri, to'liq va haqqoniy bo'ladi. Ammo ba'zilar "rassom uchun yuzaki kuzatishning o'zi kifoya, san'atda naturani "sodda", "bevosita" qabul qilish noyob sisat", deb hisoblaydilar. Bunday qarashlarning vakillari boshlang'ich sinfdagi bolalarni ham rasm chizish savodiga o'rgatish zarur emasligiga chuqur ishonadilar. Ular "qalamtasvirdan malakali rasm chizish bolalarni buzadi, ular o'z holiga erkin qo'yib berilishi lozim", deb hisoblaydilar. Bu albatta noto'g'ri nuqtai nazardir. Asliga qarab, o'rganish uchun rasm chizishning mohiyati shundan iboratki, talaba aks ettirish vazifa qilib qo'yilgan narsaning tuzilishining o'ziga xos bo'lgan tamonlarini tushungan holda o'rganadi va ularni rasmida aniq puxta tasvirlashga intiladi. Umuman olganda rasm chizish jarayoni aniq masalalarni birin- ketin, uzyiylikda, ongli ravishda hal etishdan iboratdir. Har bir rasm chizuvchi ma'lum paytda hayolan undan so'ng esa qalam yordamida o'z tamonidan tasvirlanayotgan narsa hususiyatlaridan kelib chiquvchi u yoki bu savolga javob berishi kerak. Faqat ana shunday munosabat asosidagina tasvirlanayotgan hayot haqiqatini talaba tomonidan faol bilish samarali amalga oshirilishi mumkin.

## SHAKL

Avvalombor rasm chizuvchi predmetning shakli tushunchasi haqida bilib olishi lozim. Musavvir muallim D.I.Kardovskiy rasm chizishga o'rgatishning uslub va qonun-qoidalari haqida gapirib, shunday degandi: "Rasm chizishni o'rganayotgan kishi o'zining ishida shaklga asoslanishi kerak. Shaklning o'zi nimadan iborat? U kub, shar, silindr va boshqa geometrik jismlar singari u yoki bu xususiyatga ega bo'lgan massadir.

Jonli narsalarning shakli albatta, to'g'ri geometrik shaklga ega emas, ammo chizmada u ham shu geometrik shakkarga yaqintashadi va shunday qilib yorug'likning perspektiv uzoqlashayotgan satxlar bo'ylab joylashishining geometrik jismlar uchun ham amal qiladigan o'shanday qonuniyatlarini qaytaradi". Predmetning murakkab hajmli shaklini tahlil qilish faqat oddiy geometrik qoidalarni topish bilan cheklanib qolishdangina iborat emas, albatta - bu chizilayotgan narsani bilish, idroklash va o'rGANISHNING murakkab jarayonining ilk bosqichi xolos.




Shakl muaminosi o'quv mashq rasmida asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Uning to'g'ri hal etilishi o'rGANUVCHIDA va shuningdek o'rgatuvchida katta qiyinchiliklar tug'diradi. U shunday deb yozgan edi:"Qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha barcha mashqlarning asosiga shakl qo'yilishi kerak. Tasviriy san'atning barcha turlari plastik shakl bilan ish ko'radi". Shuning uchun ham avval "shakl" "forma" terminini ma'nosini aniqlab olsak. Shakl- /forma/ so'zi orqali /lotincha (forma) tasviriy san'atda predmetning ustki ko'rinishi tashqi chizig'i, tarhi tushuniladi. Biror buyimni tasvirlar ekan, rassom avvalombor uning shaklini o'xshatib ko'rsatishga intiladi. Barcha

predmetlar o'zini o'rabi turgan atrof -muhitdan ma'lum sath bilan chegaralangan. Ba'zi predmetlarda u bir necha to'g'riburchakli yuzalardan tashkil topgan, masalan: kitob, yashik, quticha, uy va boshqalarda. Bu holda bunday predmetlarning shakli ko'rinishi to'g'riburchakli deb ataymiz. Boshqalarida masalan: koptok, quvur kabilarda sathlar ravon tekis yumaloq bo'lishi mumkin.

Har qanday predmetning shakli uch o'lchamga (bo'y, eni, qalinligi) ega. Boshqacha qilib aytganda u hajmlidir. Ba'zida shundan "hajmli shakl" degan ibora kelib chiqqan. Ba'zida murakkabroq "hajmli fazoviy shakl" iborasi ham ishlataladi. Bunday aytigani ancha to'g'ri chunki u shaklning atrof-muhit, borliq bilan uzviyiligini bildiradi. Chunki predmet muhitda mavjud bo'libgina qolmay, u bilan har tamondan o'ralib uning ma'lum bo'lagani egallab turadi. Bundan tashqari predmetning turli bo'laklari bizga nisbatan har xil uzoqlikda bo'ladi, ya'ni uning sathi fazoning turli sohalarini egallaydi. Biron narsaning tasvirlar ekanmiz biz avvalombor u egallab turgan fazoni chizib chiqishga, bu bilan uning shaklini ifodalashga harakat qilamiz. Shunday qilib qalamtasvirni chizish paytida qo'llaniladigan "shakl" iborasi tushunchasi "hajm" iborasiga muvofiq keladi. Shuning uchun biz bundan buyon "shakl" iborasini **hajmli** shakl tarzida tushunamiz va ishlamatimiz. Demak, shakl-bu muhitning ma'lum bo'lagi ekan. Uning to'g'ri tasvirlash uchun rasm chizuvchida fikrlash va fazoviy idroklassh yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak.

Dunyodagi barcha narsalar shaklga ega. Shakllarning turli-tumanligi behisobdir. Ko'plab shakllar orasida biz qimirlamaydigan, o'zgarmaslarini ham ko'ramiz. Ularning qatoriga uylar, qoyalar, toshlar, uy-ro'zg'or buymulari va boshqa ko'plab narsalarni misol qilib kiritishimiz mumkin. Bulutlar, tutunlar, suv sathi, harakatdagi tirk mavjudodlarning gavdasi esa doimo o'zgarib, harakatlanib turadi. Predmetlarning katta-kichikligida ham bir cheksiz har-hillikni ko'ramiz. Bu ko'plab hodisalarini **tushunib** olishimiz uchun eng oddiyidan boshlab, so'ng murakkabini o'rgatishimiz tabiiy. **Eng** oddiy predmetni olaylik. Uning shaklini ko'rsatish uchun avvalombor o'sha narsanining qiyofasi xususiyatini tushunib olishimiz zarur. Buning "kaliti" esa ushbu predmetning ko'rinishiga o'xshab ketadigan geometrik jism kub, slindr, shar, piramida, prizma vaboshqalar bilan o'zaro qiyoslashdir. Chunki ularning tuzilishi ancha sodda bo'lib,

ko'pchilikka tushunarlidir. Rasmda shaklni bo'rttirib hajmdor qilib tasvirlashda tus asosiy vositalardan biridir. Predmet shaklining sathini yoritilganlik darajasi narsaning tusi deyiladi. Yoritilganlik darajasi yorug'likning umumiy xususiyatiga predmet turgan fazoviy joyga, uzoq-yaqinligiga va niroyat uning rangiga, och, yoki to'qligiga bog'liq. Turli kuchdag'i tus orqali chizilayotgan narsadagi ochdan-to'qgacha bo'lgan barcha turli-tumanlikni ko'rsatishimiz mumkin. Uning natijasida qalamtasvirning hajmli bo'lib ko'rinishga erishiladi. Borliqni jonli kuzatishimizda biz predmetning shaklini uning nisbatlaridan, yoritilganligidan va u turgan muhitdan ajratamiz, barcha bu qismlarini buzulmas o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'ramiz.




Predmetning mutanosibligini aniqlar ekanmiz, uning balandligi, kengligi va chuqurligi bilan, uning katta-kichikligini yonidagi buyumlar katta-kichikligi bilan qiyoslaymiz. Hajmli shaklni tusini aks ettirib, ya'ni soya va yarimsoyalarni berib, yorug'aan soyagacha bo'lgan barcha o'tishlarning farqini qidiramiz. Barcha ishni solishtirishlar, taqqoslashlar orqali amalga oshiramiz, rassomlar tili bilan aytganda o'zaro muqobil "munosabatlar" asosida quramiz. Chizilayotgan narsaning bo'laklarini alohida-alohida barcha mayda-chuydalariga e'tibor berib qarash oson. Bunday odatga qarshi kurashish talabidan tinimsiz harakat talab qiladi. Rasm chizish jarayoni doimo

umumiylid dan hususiylikka qarab boradi. U asosiy katta shakllarni belgilashdan boshlanadi va ular orqali tobora mayda shakllarni ishlashga o'tiladi. Boshlovchi rasm chizuvchi uchun katta shaklni yaxlit ko'ra olishni o'rganish juda muhimdir, chunki huddi ana shundan keyin rasm chizishga o'rganish boshlanadi. Qalamtasvir chizuvechi agar katta hajmni his eta olmasa va ko'rolmasa o'z faoliyati davrida doim qiyinchilikka uchrashi tabiiy.

## **GEOMTRIK JISMLARNI PERSPEKTIVA QOIDALARI ASOSIDA TASVIRLASH**

Chizilayotgan predmet qaerda turgan bo'lmasin, yorug' xonadami yo ochiq joydami, uni o'ziga qarab rasmini tasvirlash uchun uni ufq chizig'iga nisbatan turish holatini aniqlab olishimiz zarur. U ufq chizig'idan balandda, pastda yoki uning o'tasida joylashgan bo'lishi mumkin. Ufq chizigi ko'z balandligida tasavvur qilinayotgan gorizontal sathni predmet bilan kesishishidan hosil bo'ladi. Agar biz yuqoriga ko'tarilsak, yoki pastga tushsak shunga yarasha ko'z balandligining o'zgarishiga muvofiq ufq chizig'ining holati ham o'zgaradi. Predmet ko'z balandligiga nisbatan balandda yoki pastda turganligiga qarab ko'rinishi uning shakli turlicha bo'ladi. Ufq chizig'ining yuqorisida joylashgan predmetlarning pastki tomoni, pastda turganlarining esa yuqori qismi ko'riniib turadi. Bunda gorizontall chiziqlarning perspektiv yo'nalishlari xuddi bizdan qaysidir bir temonga uzoqlashayotganday ancha o'zgaradi. Rasm chizishga o'rgatish barcha boshqa fanlar va san'at turlari kabi, bosqichma-bosqich muarkkablashib boradi. Ilgarigi uncha murakkab bo'limgan mashqlarni qunt bilan bajarmay turib kelgusidagi ancha murakkabini tushunish qiyin bo'ladi. Har-xil predmetlar bir-biri bilan kesishuvchi yassi sathlardan tashkil topgan. Ana shunday murakkab shaklga ega bo'lgan predmetlarning qanday tuzilganligini va perespektiv qurilishini bilish uchun avvalo to'g'ri burchakli, yassi narsalarning perespektiv qurilishi bilan tanishish maqsadga muvofiqdir.

Unchalik qalin bo'Imagan to'g'ri burchakli taxtachani olib, chizuvchiga nisbatan burchak holatida, ufq chizig'i uning o'rta qismidan biroz pastroqdan o'tadigan qilib vertikal holatda qo'yamiz.



Uning perspektiv holatini chizishni boshlar ekanmiz, predmetning nisbatlarini aniqlab olamiz. Avval ko'rinyotgan balandligining ko'rinyotgan kengligidan kattaligini belgilaylik. Ana shu o'lchovlarning farqini chizilayotgan rasmda tasvirlashimiz kerak. Buning uchun taxtachaning yaqnidagi vertikal tomonning balandligini ixtiyoriy ravishda belgilab olamiz. Unga asoslanib predmetning balandligi kengligidan necha marta kengligini topishimiz kerak.

To'g'ri to'rburchak nusxasining kuzatar ekanmiz, biz uning oldindagi qirrasini uzoqdagi qirrasiga nisbatan katta bo'lib ko'rinyotgenini sezamiz. Bir -biriga parallel bo'lgan uzoqlashib borayotgan gorizontal qirralari esa qalinlashib ko'rindi. Uning ufq chizig'idan pastdagisi go'yo ko'tarilayotgandek yuqorisidagi ufq chizig'iga qarab pastlab borayotgnini ko'rishimiz mumkin. Ularning qanchalik qalinlashib borayotganligi gorizontal chizig'iga bog'liq. Topigan chiziqlarni rasmda belgilab o'shilgan qiya to'g'ri chiziqlar bilan belgilaymiz. Uchiziqlar davom etganda ufq chizig'ida o'zaro kesishishi kerak. Kesishish nuqtasi qog'oz sathidan ancha tashqarida bo'lishi ham mumkin. Taxtachaning umumiyligi to'g'ri to'rburchagi chizilgach, uning qalnligini belgilaymiz. Xuddi ana shunday to'rburchakli taxtachani gorizontal

holatdagisini ufq chizig'idan pastdagi holatini ham perspektiva qoidasi bo'yicha chizishni mashq qilib ko'raylik.

Bundan avval chizilayotgan taxtachani old gorizontal qismining uzunligi va uzoqlashayotgan gorizontal sathning kengligi belgilab olinadi. Yon tomonlarning yo'nalishini aniqlash uchun o'tirgan joyimizdan qalamni vertical holatda tutib "a" va "b" nuqtasiga qo'yamiz va qalam bilan taxtacha tomonlari oralig'idagi burchaklarni belgilaymiz. Bu burchaklarni tasvirda aks ettiramiz. Taxtachaning yon tomonlari davom ettirilganda ufq chizig'ida yotgan nuqtada kesishishi lozim. Uning qalinligini umumiy shaklni belgilash paytidayoq kengligi va uzunligiga muvofiq belgilab olishimiz mumkin. Rasmni to'g'ri chizilishi taxtachaning balandligi, kengligi va uzunligini farqini, shuningdek uzoqlashib borayotgan gorizontal tomonlarning qiyaligini bexato topilishiga bog'liq.


### **HAJMLI SHAKLNI TASVIRLASH**

Tabiatda chiziq bo'lmay, balki, shaklning chegarasi mavjuddir. Fazoda shakl sathlar bilan chegaralangan bo'lib, qalamtasvirda esa uning chegarasi chiziq bilan ko'rsatiladi. Haqiqiy borliqda biz predmetlarni ma'lum bir kattalikda ko'rsak, qalamtasvirda ularning mutanosibligi munosabatlari mutlaqo boshqacha beriladi. Haqiqatda predmetlardagi yorug'lik, soya, refleks, yarimsoyalarining kuchi rasmida biz ko'rayotganimizga qaraganda bir necha bor kuchlidir. Barci'a ana shunday farqlarni inson ko'zi yaxshi ilg'ab olishga qodirdir. Shuning uchun predmet va uning qog'oz sathidagi tasviri turlicha qabul qilinadi. Rasmida predmetning shakli ya'ni sathlar bilan chegaralangan fazo chiziqlar bilan tasvirlanadi. Qalamtasvirda tus orqali yorug'lik va soyalar beriladi. Ular predmet hajmini aks ettirishda yordam beradi. Predmetga yorug'lik tushar ekan uni bir tekis yoritmaydi, bir xil sathlarga kuchli yorug'lik tushsa, boshqalari yarimsoyada bo'ladi. Ayrimlari esa butunlay soyada qoladi. Talaba shaklni soya va yorug' orqali ko'rsatishida qiyinchilikka uchramaydi. U predmetning masalan: kubning tasvirini qura boshlar ekan perspektiva qoidalariiga asoslanadi. Uch o'lchamli, hajmli shaklni ikki o'lchamli qog'oz sathida tasvirlashda qurish ko'nikmalarini egallash perspektiva va soyalar nazariyasini o'rganish bilan chambarchas bog'liq. Bundan


tashqari qalamtasvir chizishni uslubiy ketma-ketlikda to'g'ri bajarish uchun albatta malaka va ko'nikmalar qunt bilan egallanishi lozim.

### GEOMETRIK SHAKLDAGI PREDMETLAR. KUB


Atrofimizni o'rab turgan barcha narsalarni asosini kub tashkil qiladi. Kubning perspektiv tuzilishini o'rGANISH jarayonida biz barcha to'g'ri burchakli, hajmlli shakllarni idrok etish, hamida chizishni bilib olamiz. Kubning ko'rINAYOTGAN shakli boshqa predmetlar kabi rasm chizuvchiga nisbatan fazoda qanday holatda turganligiga, shuningdek tasvirlovchining ko'rish nuqtasining o'zgarishiga bog'liq.



Kubning shakli olti tomon bilan cheklangan kvadratlardan tashkil topgan. Kub sizga bir, ikki, yoki uch tomoni bilan ko'rinishi mumkin. Uchta tomonida boshqa sathlar ko'rINmaydi. Kub tomoshabinga bir tomo: i bilan ko'ringanda yassi kvadrat shakli namoyon bo'ladi. Bu holatda uning hajmi sezilmaydi. Kubning hajmdorligi qarayotgan kishiga ikki tomoni, ko'pincha uch tomoni bilan burilib turganda yaxshi sezildi. Ammo bunda kubning kvadrat sathlari qisqarish holatida turgandagi perspektiv qurilishini tahlil qilishimiz mumkin.




Agar kub ufq chizigi'dan pastda joylashgan bo'lsa uning uchunchi yuqoridagi sathi ham albatta ko'rindi. Ufq chizig'ining yuqorisiga ko'tarilgan kub past tomonidan ko'rindi. Bu holatda uning ostki tomoni ko'riniib turadi. Kubning vertical chiziqlari qanday bo'lsa shundayligicha tik holatda tasvirlanaveradi, faqat ular turlicha kattalikda bo'ladi. Bizga qanchalik yaqin tursa, shunchalik katta bo'lib ko'rindi, eng oldingi qirrasi esa barcha boshqalaridan katta bo'ladi.




## SILINDR

U ikki doira asosi va g'ol'sasimon sathdan iborat. Silindrning asoslari uning markaziy o'qiga nisbatan perpendikulyardir. Bu silindrning barcha holatlarda korinadi. Silindrning asosini uning frontal holatda turganida aylana shaklida ko'rishimiz mumkin. Lekin silindrning bu holatida shakli-shamoyili qandayligi haqida tasavvur hosil bo'lmaydi. Agar rasmda uning shaklini chizmoqchi bo'lsak, silindrning yon sirti va ustki qismi ko'ringan bo'lishi, yoki yon sathi bilan pastki asosi ko'rinishi maqsadga muvofiqdir.




Bu holatlarda silindr aylanasining asoslari oval shaklida ko'rinaldi. Ayrim rasm chizishni endigina o'rganayotganlar stakan, chelak, quvur, sut idish va boshqa shu kabi silindrsimon predmetlarni asosini siniq, notekis qilib chizib, qo'pol xatolikka yo'l qo'yadilar. Oval uzyiy chiziqdan iborat bo'lib, burchaklari bo'lamaydi.



Agar silindr ufq chizig'idan pastda joylashgan bo'lsa, unda, yuqori qismi pastkisiga qaraganda torroq oval hosil bo'ladi. Yuqori va pastki sathining ovallarining yumaloqligi uning yotiq holatda, yoki yon tomoniga qiyshayib turgandagi holatlarida namoyon bo'ladi. Aylananing perspektiv qisqarish holatini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.

Keyingi rasmda esa silindrning turli holatlarining qisqarishida qanday ko'rinishi aks ettirilan. (Silindrning asosi kvadratning perespektiv qurilishi yordamida topilgan, silindr o'q asosiga nisbatan perpendikulyardir).




Silindrning perspektiv holatida ham barcha boshqa predmetlarda bo'lganidek bizga yaqin turgan qismi kattaroq, ya'ni eng oldingi oval ham uzoqdagiga qaraganda kengroq va yumaloqroq bo'lib ko'rindi.

### PRIZMA VA PIRAMIDA



Agar biz ko'pburchaklarni perspektiv holatini aniqlash qoidalari o'rganib olsak, prizma va piramidalarning qanday qilib chizishni bilishimiz ancha osonlashadi. Ko'pburchakni chizishdan avval aylananing perspektiv qurilishini chizib olishimiz kerak. Chunki biz uni ichiga ko'pburchakni joylashtirib chizishimiz oson bo'ladi. U ma'lum mutanosiblikda o'q chiziqlari bo'lgan ellipsoidan iborat. Chizilayotgan narsani kuzatib uning burchaklarini balandligini aniqlab ellips ichida ko'pburchakning burchaklarini belgilaymiz. Ko'pburchakni chizish jarayonida burchaklarning o'zaro joylashishini bir-biriga parallel chiziqlarning kesishish nuqtasini his qilib, ayniqa diqqat bilan aniqlash kerak. Uning to'g'ri chizilgan chizilmaganligini tekshirish uchun


qarama-qarshi burchaklar balandligini birlashtiruvchi dioganal yordamchi chiziqlar o'tkazishimiz kerak. Bu dioganallar ularga parallel bo'lgan ko'pburchak tomonlari yo'nalgan kesishish nuqtasiga qarab ketgan bo'lishi kerak. Unda burchaklar balandligi holatini vertikal va gorizontal chiziqlar chizish bilan tekshirish mumkin. Toq sonli ko'pburchaklarni chizish alohida e'tibor bilan aslidan qarab har bir tomonlarning hissasini aniqlashni, ularning og'ish burchaklarini va burchaklar balandligini diqqat bilan topishni talab qiladi. Chunki bunday ko'pburchaklarning chizilayotgan rasmi to'g'ri, yoki noto'g'riliгини aniqlashni osonlashtiradigan bitta kesishuv nuqtasiga ega bo'lgan parallel tomonlari bo'lmaydi.



Har qanday prizma va pirimidalarini chizishda ularning asosini qurishdan boshlagan ma'qul. Quyidagi rasmda barcha yon qirralari vertical gorizontal sath fa turgan olti tomonli prizma tasvirlangan. (a) Boshqasi yotiқ holatda ko'rsatilgan (b). Uning yon tomonlari qirralarining chiziqlari ufq chizig'idagi nuqtada kesihсади. Rasmда prizmaning og'ib turgan holati ham ko'rsatilgan. (v) Endi gorizontal sathda yotgan oltiqirrali pirimidaning qanchalik og'ib turganligini aniqlaymiz. O'q chizig'iga to'g'ri


burchak ostida piramidaning oltiburchakli asosi tasvirlanadigan ellipsning katta o'qini o'tkazamiz. Ellipsning kichik o'q chizig'i katta o'qga perpendikulyar va u piramidaning o'qi bilan kesishadi. Asos ellipsni chizib oltiburchakni burchaklari balandligini belgilaymiz, so'ng ularni piramida cho'qqisi bilan birlashtiramiz.






### SHAR

Yumaloq sathli predmetlarni tasvirlashda ko'pchilik qiyinchilikka uchraydi. Chunki biz kub shaklini chizar va uning konstruktiv asosini tahlil qilar ekanmiz, har turli ko'rish nuqtasidan qaralganda uning perspektiv ko'rinishi qanday o'zgarishini aniq ko'ramiz. Sharning shakli esa qaysi ko'rish nuqtasidan qaramaylik o'zgarmaydi.




Bu qalamtasvirni endi o'rganayotganlarning idroklash ishini murakkablashtiradi. Ularning aksariyati hajm o'rniiga yassi doira chizadilar keyin uni zix chizig'idan boshlab qoraytirib chiqadilar. Natijada soya yorug'lik munosabatlari tasodifiy dog'lardan iborat bo'lib qoladi. Shuning uchun shakli yumaloq bo'lgan predmetni chizishda avvalambor sathlaming fazoda yorug'lik manbaiga nisbatan joylashganini aniq tasavvur qilish, yorug'-soyalarning chegarasini diqqat bilan aniqlash kerak.

Oddiy geometrik jismlarni perspektivada chizish haqida boshlovchi rasm chizuvchi uchun zarur bo'lgan narsalar shulardan iborat. Ulardan foydalanib barcha boshqa murakkab tuzilishga ega bo'lgan jismlarning perspektiv holatini aniqlash, shunday geometrik jismlarning gips namunalaridan tuzilgan natyurmotlar chizish borasidagi masalalarni bemalol ijobiy hal etish mumkin.



## **GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORTLARNI TASVIRLASH**

Ko'pincha o'rgamchik mashq sifatida bajariladigan qalamtasvirlami chizishda geometrik jismlarning gipsdan yasalgan namunalaridan foydalaniladi. Ular yordamida turli-tuman ko'rinishdagi, ha'mda murakkablikdagi natyurmortlar qo'yish va qunt bilan chizish kelajakda yaxshi samara beradi. Oq gipsning qulayligi shundaki, undan yasalgan geometrik va boshqa ko'rinishga ega bo'lgan predmetlarning shakl tuzilishi aniq bo'ladi. Chizilayotgan narsaning qog'oz sathida tasvirlash paytida tus, yorug'-soya kabi shaklni hajmli qilib ko'rsatuvchi vositalarni yaxshi tushunib olishni osonlashtiradi. Bir xil materiallardan tayyorlangan gips jismlar rasm chizishni endi o'rganilayotgan talabani dastlabki davrda buyum fakturasini aks ettirish vazifasidan ozod etadi. Bu bilan asosiy narsa nisbatlarini aniqlashni ancha osonlashtiradi. Chizish uchun odatda bir emas balki, ikkita geometrik jism qo'yiladi. Agar bitta predmet qo'yilsa o'lchamlarni solishtirish imkoniyatini cheklaydi, suratni joylashtirish, shuningdek uning perspektiv qurilishini topish vazifasini juda ham soddalashtirib qo'yadi. Tasvirlashni o'rganish maqsadida ikkita turli ko'rinishdagi qiyofaning qo'yilishi esa ko'proq savol tug'ilishini ta'minlaydi, katta qiziqish va javobgarlik hissini paydo qiladi. Bu bilan isjni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qulay sharoitni yuzaga keltiradi. Natyurmortni chizish uchun tayyorlash juda ham muhim mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki predmetlarni ma'lum ko'rinish kasb etadigan yaxlit kompozitsiyali nolatda bir-biri bilan azviy bog'liqlikda qo'yish alohida etiborni talab qiladi. Rasm chizishni jiddiy o'rganishni, bu borada ma'lum bilim va malakaga ega bo'lishni istovchi talaba avvalambor o'zi mustaqil bajarishi uchun natyurmort qo'yishni ham o'rganishi kerak. Bunday maqsadni muvaffaqiyatlama amalga oshirish oddiy geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmort kompozitsiyalarini tuzishdan boshlanadi va to'ora murakkablashtirib boriladi. Biq quyida ana shundan gipsdan yasalgan oddiy geometrik jismlardan tashkil topgan unch murakkab bo'Imagan natyurmortni qalamtasviri ni qanday ishlashni bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz.



Gipsdan yasalgan kub va silindr dan iborat natyurmortni chizishda avval uning yaxlit ko'rinishi va detallari yaxshilab kuzatilib idrok etilishi, turli tomonlardan qarab ko'rib eng ma'qul bo'lgan tomondan turib chizilishi kerak. Avval albatta bir nechta xomaki chizgilar chizilib har bir predmet turgan holati, bir-biriga nisbatan katta kichikligi, utqi chizig'iga nisbatan turishi aniqlab olinadi. Qog'odagi chizilayotgan tasvirlarning kompozitsiyasiga ham alohida e'tibor berib aks ettiriladi. So'ngra ana shu har biri 10-15 minut davomida bajarilgan xomaki qalamchizgilarga, chizma lavhalarga asoslanib daveniiga o'tilib, katta qog'oz sathida chizish mashqi boshlariadi.

## BIRINCHI BOSQICH

### JOYLASHTIRISH

Bevosita ishni amaliy bajarishga o'tar ekanmiz, rasm kompozitsiyasiga ya'ni chizilayotgan narsalarni qog'oz sathida qanday joylashtirish, qaysi kattalikda tasvirlashga e'tiborni qaratish kerak. Kompozitsiyani u, yoki-bu holatda hal etilishi qalamtasvirning umumiy natijasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Muvaffaqiyatsiz joylashtirish esa uning sifatiga putur yetkazishi mumkin. Birinchi navbatda dastlabki ishlangan xomaki chizgiga tayanib bo'lg'usi tasvir o'rni chegaralanadi. Chizilayotgan buyumlar to'pi, ya'ni: kub va silindrning birgalikda yaxlit ko'rinishining taxminiy "silueti" chiziqlar orqali ifoda etiladi.



Bunda natyurmortdagи predmetlarning kattaligi va chiqib turgan burchaklar yo'nalishi ko'z bilan chamlab, aniqlanadi. Tasvir yengil, tezkor chiziqlar bilan bajariladi. Qog'ozdagi qalam uchini bosmasdan chizilgan barcha yordamchi chiziqlar keyinchalik o'chirib tashlanadi. Qo'g'ozda aks etgan rasm kompozitsiyasi o'qituvchi tomonidan ma'qullaygach, ish yana davom ettiriladi.

## IKKINCHI BOSQICH. QURISH

Bu bosqichdagi asosiy ish kub va silindrning perspektiv qurilishini amalga oshirishdan iborat. Ushbu masalani hal etish ko'rgazmali perspektiva qonuniyatining oddiy qoidalarini bilishni talab etadi. Biz yuqorida ayrim geometrik shakllarni alohida-alohida qisqarib ko'rinishini, qoidalarini qurishni ko'rib chiqqandik. Mazkur holatda esa buyum ikkita bo'lganligi va bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda turganligi sababli vazifa ham ancha murakkab. Shuning uchun avvalo ufq chizig'i aniq belgilab olinishi lozim.

Qog'ozning utq chizig' idan pastdagi qismini tasavvur etlayotgan tazo ichkarisiga yo'nalgan gorizontal satr deb qarash kerak. Ana shu tekislikda avvalambor kvadrat ko'rinishdagi kubning asosi belgilanadi. Buning uchun chizuvchiga eng yaqin turgan nuqtadan, yotgan kvadrat tomonlarining qisqarib ko'rinishi ko'zda chamalab chiziladi va ufq chizig'iga tomon yo'naltiriladi. Kubning asosi topilgach uning yo'sida turgan silindrning turgan yerini aniq qilib topish, ya'ni gorizontal tekislikdagi silindr proyeksiyasidan hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni belgilab olish juda muhimdir.

Silindrning turgan joyini aniqlashda yo'l qo'yilgan noaniqlik keyinchalik predmetlar shaklini qurishda silindr bir yoni bilan kubning sathiga yorib kirib turgandek bo'lib ko'rinish qolishiga olib kelishi mumkin. Umuman predmetlar guruhining perespektiv qurilish rejası qanchalik aniq topilsa keyingi ish jarayonida kamchilik va qiyinchiliklar shuncha kam bo'ladi. Chizish vaqtida asta sekin kub va silindring shakli aniqlashtiriladi hamda yordamchi chiziqlar o'chiriladi. Shu bilan birga har qaysi alohida geometrik qismning kattaligidagi, shuningdek ikkala jismning birlgilikda olingan holatidagi o'zaro munasabatlari ham aniqlashtiriladi. Bunda barcha qirralarini aks ettiruvchi chiziqlarning yo'nlishini yordamchi chiziqlar orqali davor ettira borib, chizuvchi uchun ko'rinxmay turgan sathlarni ham ko'rsatish tavsiya etiladi. Yordamchi chiziqlar perspektiv tasvirning qanchalik to'g'rilingini tekshirish imkoniyatini beradi. Dastlab barcha tasvirlar ko'z bilan chamlab bajariladi. So'ng qalam yordamida o'lchab tekshirilishi mumkin. To'g'rilingiga to'la ishonch hosil qilingach yordamchi chiziqlar o'chirib tashlanadi.




### UCHINCHI BOSQICH. SHAKL HAJMINI KO'RSATISH

Shakl hajmini ko'rsatish ustida ishlash, aslida ikki qismga bo'linadi. Boshlanishida barcha asosiy soyalar yengil tuslash bilan qoplanadi. Bu esa tasvirga bir oz bo'lsa-da hajmdorlik holatini beradi. Ish mobaynidagi perspektiv qurishda qog'ozdag'i yassi tasvirmi real hajmli qiyofa ko'z oldimizda turgan narsa bilan solishtirishga to'gri keladi. Ko'pincha bunday paytda "ko'rish irradasiyasi" deb ataluvchi holat bilen bog'liq xatolikka yo'l qo'yiladi. Masalan, ikki xil rangdagi bir xil kattalikdagi kvadratlardan oqi qora:iga nisbatan katta bo'lib tuyiladi. Soyalar belgilab chiqilgach suratdagi va qiyofadagi hajmlarni solishtirish mumkin bo'lib qoladi. Natijada kamchiliklarni topib tuzatish imkoniyati tug'iladi. Barcha nisbatlarni yana bir bor sinchiklab tekshirib kamchiliklarni bartaraf etib, tasvirlanayotgan buyumlar shaklini maydalab ishlashga o'tilishi mumkin.

Avval eng quyuq, shuningdek tushuvchi soyalar ishlanadi, ulardan so'ng yarimsoya va yorug' joylarga o'iladi. Bunda ishni bo'laklarga bo'lib, ya'ni shaklni qandaydir bir qismini ishlab chiqib so'ng boshqasiga o'tish yaramaydi. Shaklni ko'rsatish asta sekin uning barcha bo'laklarida bir maromda bo'lishi, rasm chizish


qo'yilgan namunani jiddiy kuzatib uning soya va yorug'lik munosabatlarini taqqoslashlar asosida olib borlishi kerak.



Bunday tizimda ishlanganda qalamtasvirda doimo yaxlitlik saqlanib turadi. Shunday tartibda ishlashga rasm chizishni o'rganishning daslabki vaqtaridanoq odatlanish kerak. Har bir narsani soyasi, uning turli o'zgarishlari va yorug'liklarini aslidagidan tus o'zgarishlari qo'yilmaning tus to'q-ochligi "shkala"sidan ancha kambag'alroqdir. Shuning uchun turli-tuman tus o'zgarishlari boyligini ko'rsatishga haddan ziyod intilish maqsadga muvofiq emas. U qo'pol xatoliklarga olib kelishi, chizilgan qalamtasvirning yaxiitiigiga puur yetkazishi mumkin.

Qo'yilma bo'laklari va orqadagi sath fonning tus o'zgarishlari bo'yicha farqi ularni bir-biri bilan muntazam solishtirib hal etilishini talab qiladi. Agar avval predmetlar shakli to'liq aks ettirilib, so'ng orqa sath ishlansa, shakllar tasviri go'yo unga yopishib qolgandek tuyiladi. Shuning uchun barcha narsani birdaniga ko'rib yaxlit ko'rinishini ayrim bo'laklari bilan taqqoslab, idroklab tasvirlani kerak.

Bu qonun-qoidalarning to'gri ekanligiga kelgusida turli tasvir xususiyatlaridagi qalamchizgilarni chizish davomida ishonch hosil qilamiz.




Rasm chizishning keyingi tugallanish bosqichi ustida ishlash barcha qismlarni umumlashtirishdan iboratdir. Unda chizilgan tasvirdagi biror qism boshqalaridan juda ham ajralib "o'gay" ko'rinish kasb etib qolmasligi choralar ko'rildi. Ayrim joylarda aniqlab qolningan juz'iy kamchiliklar esa o'chirg'ich yordamida ehtiyoitlik bilan tuzatilib, puxta ko'rinishga keltiriladi. Natijada qalamtasvir ishlashni o'rganish jarayonining keyingi yanada murakkabroq, ancha-muncha orttirilgan malaka talab qiluvchi bosqichlariga o'tilishiga zamin yaratiladi.

#### MURAKKAB NATYURMORTLARNI TASVIRLASH

Oddiy geometrik ko'rinishdagi jismaldan tashkil qilingan unchalik murakkab bo'lman natyurmortlarni chizib bir oz malaka oshirilgach, murakkab ko'rinishga ega bo'lgan natyurmortlarni chizishga o'tish mumkin. Bunday o'quv mashg'ulotlarida uch, yoki undan ortiq har xil ko'rinish va shaklya ega bo'lgan geometrik jismaldan tashkil topgan natyurmortlarni chizish yaxshi samara beradi. Chunki turli kattalikdagi bir-biriga nisbatan baland, yoki pastda, uzoq yoki yaqin masofada turgan narsalardan tuzilgan kompozitsiyani tasvirlash talabidan puxta bi-im, malaka hamda haqqoniy tasvir'iy olish ko'nkmalarini talab etadi. Natijada ilgarigi mashqlar davomida o'rganilgan narsalarni

yanada mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ldi. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan natyurmort biz ilgari chizishni tavsiya etgan kub va silindirdan iborat kompozitsiyadan bir oz farq qiladi, uni chizish ancha murakkab. Chunki bu ko'rinishda talaba oldiga ko'proq vazifalar qo'yiladi. Unda barcha jismlarni ular turgan yerni sathida perspektiva qonun-qoidalari asosida to'g'ri tasvirlashning o'zi kifoya emas. Bunda buyumlar orasidagi hajm turli-tumanligi, ularning chizuvchiga nisbatan uzoq-yaqinligi, sathda joylashishi, soya va yorug'ning predmetlar ustiga tushishi, hamda atrofda tarqalishi kabi bir qancha vazifalar ilgarigi mashqlarda qo'llangan ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich hal etilishi kerak.



### UYDA MUSTQIL BAJARILADIGAN VAZIFALAR

Aslidagiga o'xshatib rasm chizish qonun-qoidalarni puxta o'rganib olishni istagan har bir shog'ird o'quv dasturi bo'yicha sinfxonada bajarilgan mashq rasmlaridan tashqari uyda mustaqil ishlashi hamda o'zini o'rgatib borishi, qunt va chidam bilan tinmay mashq qilishi, shu bilan birga albatta maxsus yozilgan qo'llanmalarni mutolaa qilishi zarur. Faqat ana shundagina ma'lum muvaffaqiyatlarga erishish osonlashadi. Geometrik jismlarni chizishga oid mashqlarni bajarishda uy-ro'zg'or buyumlaridan

unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Ulardan tashkil topgan natyurmortlarni chizish, shuningdek har bir narsaning tabiiy turgan yerida tasvirlash mumkin.





Yassi to'g'ri to`rtburchak, kub, shar va parallelepipedsimon buyumlardan kitob, gugurt qutisi, shkaf, kitob javoni, yashik, turli mevalar, koptok, televizor, muzlatgich, binolarning ichki inter'er va tashqi ko'rinishlari-ekster'er hamda boshqa ko'plab shu kabilarni barcha perspektiva qorun qoidalarga amal qilib chizilsa, ularning tuzilishi va boshqa barcha xususiyatlari tahlil qilinsa, geometrik asosga ega bo'lgan barcha jismlarni tasvirlash bo'yicha malaka oshadi. Bunday mashqlarni bajarishda foydalanimadigan qog'oz o'lchami unchalik katta tanlanmagani ma'qul. Bitta butun qog'ozning to'rtadan bir bo'lagi ( A-3 o'lcham) uy vazifasini bajarishda yetarli bo'ladi. Unga chizilayotgan jismning bitta ko'rinishi shuningdek bir necha holatdagi turishi tasvirlanishi mumkin. Masalan: oddiy gugurt qutisining yoki qurilishda ishlataladigan g'ishtning o'zini o'ndan ortiq, har-xil burchak va holatlarda turgan ko'rinishini tasvirlashni mashq qilish yaxshi samara beradi.









Bitta predmetni ko'p martalab chizilishi mahoratni oshiradi va turli-tuman murakkab ko`rinishdagi jismlarni yoddan chizish qobiliyatining o'sishiga ham yordam beradi.

## MAVZULARGA OID QALAMTASVIR NAMUNALARI







## TASVIRIY SAN'AT ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI

<b>AVTOPORTRET</b>	Rassomning o'zi tarafidan bajarilgan portret (bir, yoki bir necha oynalar yordamida ishlanadi)
<b>ANIMALISTIK</b>	(lot. anima – hayvon, jonivor so'zidan olingan). Hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi.
<b>BADIYLIK</b>	Borliqni inson va uning xayotidagi voqealarni, kechinmalarni o'zaro o'xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.
<b>VITRAJ</b>	Rangli shishadan ishlangan tasvir, qashqar oyna desa ham bo'ladi.
<b>GALEREA</b>	Taviriya va amaliy san'at asarlari saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan maxsus bino.
<b>GOBELEN</b>	Suratlari to'qilgan osma gilamcha yoki mato,
<b>GOREL'EF</b>	(frants. <i>haut-rehie</i> , bo'rtma, qavariq) haykaltaroshlik turi. Gorel'efda tasvir yuzaga nisbatan bo'rttirib ishlanadi.
<b>GRAFIKA</b>	(yunoncha – <i>graphika</i> , <i>grapho</i> – yozaman, chizaman so'zidan olingan). O'zida chizmatasvir va bosma uslubda ishlangan asarlarni mujassam etgan tasviriy san'at ko'rinishi.
<b>DASTGOHLI SAN'AT</b>	Tasviriy san'atning bir turi. Bo'lajak san'at asarlari maxsus dastgohlarga o'rnatilib ishlanganligi uchun shunday deb nomlangan.
<b>DIZAYN</b>	Maishiylar turushda ishlatiladigan jixozlar, uy asbob-anjomlari va shunga o'xshash narsalarga chiroyli shakl beradigan rangni yaratish san'ati.
<b>JANR</b>	San'at asari turi. Ba'zida hayot lavhalarini tasvirlash janrlri asar deb ataladi.
<b>ILLYUSTRATSIYA</b>	(lot. "Aniq tasvir" degani) Biror bir tekstni to'ldirib boruvchi yoritishni, mazmunni tushuntirishda yordam beruvchi tasvir. Badiiy va ilmiy asarlarning tasviriy izohi, talqini.
<b>KARIKATURA</b>	Ilajiy tasvir
<b>QOFOZ</b>	Tasviriy san'atda tasvir chizish uchun ishlatiladigan materiallardan biridir.
<b>QALAM</b>	Oddiy qora qalamning yumshoq va qattiq xillari bor. Qalamning farqini unga yozilgan nishoni belgilaydi. Qattiq qalamlarga T, 2T yoki V, 2V, yumshoq qalamlarga M, 2 M, 3M yoki N, 2 N, 3N kabi nishonlar qo'yiladi. TM va VN belgisi qo'yilgan qalamlar o'rtacha yumshoqlikda bo'ladi. Ular rasmning aniq ravshan ko'rinishiga yordam beradi.
<b>KATALOG</b>	Asarlar va mualliflar to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan kitobcha.

<b>KSILOGRAFIYA</b>	Yunoncha- "daraxtga yozaman, chizaman" so'zidan olingen. Yog'ochdan ishlangan grafikanng bir turi.
<b>LESSIROVKA</b>	Sayqallash, pardozlash uchun tayyorlangan qoplam.
<b>LINOGRAVYURA</b>	Linolium yoki shunga o'xshash materiallarga o'yib ishlangan bo'rtma grafika tasvir.
<b>MAHOBATLI SAN'AT MARINA</b>	Tarixiy shaxs, voqealarga bag'ishlangan yodgorliklar, binolarni bezatuvchi haykaltaroshlik va rangtasvir asari. (Italyancha- "marine", dengiz so'zidan olingen) dengiz ko'rinishini tasvirlovchi kartina, manzara turi.
<b>NATURA</b>	Rassom tasvirlaydigan borliqdagi ob'ekt: inson, predmetlar, manzara va h.k.
<b>ORIGINAL OFORT</b>	Asli, asl nusxa, asl ko'rinish.
	("Kuchli azot" so'zidan olingen) Metalda ishlangan grafika turi. Ofort ishlashda bosma qoliplar, metalni kislota bilan edirish usulida tayyorlanadi.
<b>PASTEL</b>	(ital. <i>pastello</i> , pasta xamir so'zidan olingen). Pigmentlar kukuni, sut yoki bo'r, gips va niktdan tayyorlangan quruq yumshoq rangli qalamcha.
<b>PRIMITIVIZM</b>	Primitivlik, ya'ni soddalashtirilgan yo'naltirishni ifodalaydigan badiiy yo'nalish. Ibtidoiy tasvirlardan, bolalar tasvirlariga o'xshatib ishslash yo'li.
<b>PLAKAT</b>	(fr. <i>placard-e lon plaguet</i> yopishtirmoq so'zidan olingen). Grafika turi. Reklama va boshqa maqsadlar uchun bajariladigan san'at asari.
<b>PLENER</b>	(fr. <i>plein air</i> - ochiq havo). Kartinada quyosh yorig'ligi, atrof-muhitning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan ranglar turlanishini anglatadigan termin, ochiq havoda ishslash.
<b>PLANSHET</b>	Qalamtasvir mashg'ulotlarida keng qo'llanila'i. Planshetga qog'oz tortishda uning to'rttala tomoni 20-25 mm buklanadi. pianshetning ubti tomonini xo'llab chiqiigandan so'ng, qog'ozning teskarri tomoniga jiqqa xo'l latta suvni o'ziga shimib olguncha surtiladi. Chetki bukilgan burchaklari esa qurug'ligicha qoldiriladi. Qog'ozning old tomoni aylantirib qo'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkezmasdan xo'llanadi. So'ngra burchagidan oldin bir tomoni undan keyin qarama-qarshi turgan tomoni diagonal bo'yicha eliminanadi, yoki bo'limasa "knopka" bilan qotiriladi. Elimlangan planshetni gorizontal tekis joyga yotqizib ma'lum muddat temperaturali xonaga qo'yib quritiladi.
<b>PORTRET</b>	(fr. <i>portrait-tasvirlash</i> ma'nosini anglatadi). Tasviriy san'at janrlaridan biri, yoki bir necha odamlar tasviri.
<b>POSTAMENT</b>	Tagtosh, supa tosh, tag kursi, yodgorlik haykalning tag qismi.
<b>RAKURS</b>	(fr. <i>raccourci</i> - qisqarish demakdir). Tasvirlanayotgan

<b>RETUSH REFLEKS</b>	predmetlarning perspektiv qisqarishi. Maxsus qalam.
<b>SALON</b>	(lot. <i>reflexus</i> – orqaga qaytarilgan, aks etgan ma’nosini anglatadi) Refleks tevarak atrofning ta’siri, ulardan tushayotgan yorug‘lik aksi natijasida hosil bo’ladi.
<b>SAN’AT</b>	Aslida mehmonxona ma’nosini anglatadi. XVII-XIX asrlarda Frantsiyada Badiiy akademiya tomonidan uyuştiriladigan ko’rgazmalar nomi, sotishga mo’ljallangan asarlar ko’rgazmasi, ko’rgazma do’koni.
<b>SANGINA</b>	Arabcha atama bo’lib, hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvehi ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi. U tasviriy, amaliy san’at, me’morchilik, musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, televidenieni o’z ichiga oladi.
<b>SIMVOL SOUS</b>	(lot. <i>sanguineus-qonday</i> qip–qizil degan ma’noni anglatadi). Qizil, jigar rang tuslardagi qoplamasiz qalamlar. Tabiiy va sun’iy sanginalar, kaolin va temir oksididan tashkil topgan. Ramziy belgi, temsol.
<b>TARIXIY JANR TRIPTIX</b>	Yumshoq qalin qalam. Shu qalam yordamida ishlangan asar ham “Sous” deyliladi.
<b>FAKTURA</b>	Tarixiy voqealarni ifodalovchi tasviriy san’at turi.
<b>FORMALIZM</b>	(yunoncha <i>triptychos</i> – uchtalik, uch marta taxlangan ma’noni anglatadi) Bir mavzuga bog’liq bo’lgan uch qismdan iborat san’at asari.
<b>SHTRIX EKSPONAT</b>	Rassom ishlaydigan materialning tashqi ko’reinishi, sathi, o’zining yumshoq, qattiq, yaltiroqligiga aytildi.
<b>ESTAMP</b>	Asarning mazmuniga nisbatan, shakliga badiiy va tasviriy vositalariga e’tibor berish
<b>YARIM SOYA</b>	Chiziq, chizg’i. Muze’da ko’rgazmaga qo’yilgan turli xil buyum, ashyo va san’at asarlari. Bosma rasm. Nim soya narsalarda va tasvirda yorug‘ bilan soya o’rtasidagi qism.

## MUTAXASSISLAR NING QALAMTASVIR HAQIDAGI FIKRLARI

“Tajribasiga va ko’zlariga ishonib, fikr-o’ysiz ravishda ko’chirib chizuvchi rassom, xuddi qarshisidagi qo’yilgan pedmetlami, ularni bilmagan holda aks ettirayotgan ko’zgu kabidir”.

**Leonardo da Vinci.**

“Rassom bo’lish uchun avvalambor rasm chizishni bilish kerak, chunki qalamtasvir san’atning asosini tashkil etadi”.

**K. P. Bryullov.**

“San’at ilmsiz yashay olmaydi, ilm-fan o’zining yuqori nuqtasida san’atga aylanadi”

**P. P. Chistyakov.**

“Shakllarni ko’ra olmaydigan har qanday kishi chiziqni ham to’g’ri chiza olmaydi”.

**P. P. Chistyakov.**

“Predmetni borligicha va bizning ko’zimizga qanday ko’rinayotgan bo’lsa shundayligicha tasvirlash, hamda bir paytda uning “ko’rinishi” va “mohiyatini” ham ifodalash kerak”.

**P. P. Chistyakov.**

“Qalamtasvir va rangtasvirning asoslari kompozitsiya qonuniyatları bilan chambarchas bog’liqidir”.

**A. A. Deyneka.**

“Betinim ravishda naturadan chizish-ana shu eng haqqoniy va oliy maktabdir”.

**I.E. Repin.**

“Ma’lumki, qalamtasvir – har bir rassomning professional mahoratining asosidir”

**K. N. Aksenov.**

“Chiziq va tus (ton) – qalamtasvirdagi asosiy tasvirlash vositalari hisoblanadi”.

**K. N. Aksenov.**

“Qalamtasvirning birinchi bosqichida biz asosan chiziqlardan foydalanamiz. Chiziq yordamida kompozitsiyani topamiz. Chiziqlar vositasida predmetlarning nisbati va shakli aniqlanadi. Shuningdek chiziqlar orqali fazoviy muhit quriladi va bu muhitda turli ob’ektlar joylashtiriladi. Yana chiziqlar yordamida biz predmetning shakl tuzilishini – ya’ni narsaning konstruksiyasini tahlil qilamiz”.

**K. N. Aksenov.**

“Ton” – tus termini ostida shaklning yorug’ligi xususiyati tushuniladi. Bu o’tinda qalamtasvirdagi tus bir nechta funksiyani bajaradi. U shaklning soya-yorug’lik bilan modellashtirish, siluetini yuzaga chiqarishda, predmetni ochdan – to’qgachan bo’lgan o’zgarishlarini ko’rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi”.

**K. N. Aksenov.**

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Shu'la va "refleks" ning farqi nimada?
2. "Refleks" nima?
3. O'quv va ijodiy qalamtasvirni ishlashning bir -biridan farqi nimada?
4. Qalamchizgi va qoralamalar nima?
5. Shaklning "konstruktiv asosi" deganda nimani tushunasiz?
6. Qirrali buyumlarning konstruktiv asosi deganda nimani tushunasiz?
7. Shaxsiy soya va tushuvchi soyaning farqi nimada?
8. Yorug', soya, yarim soya, yaltiroq reflekslar va ularning bir-biridan farqi nimada?
9. Oddiy va murakkab shakllar deganda nimani tushunasiz?
10. Shakl qurishda yordamchi chiziqlarning ahamiyati to'g'risida gapirib bering.
11. O'q chizig'i nima?
12. Turli shakllarning perspektiv qisqarishi to'g'risida gapirib bering.
13. Buyum nisbatlari deganda nimalarni tushunasiz?
14. Ufq chizig'i nima?
15. Tutash nuqtasiga misollar keltiring.
16. Aylana perspektivasi nima?
17. Buyumda yorug'likning taqsimlanish qonuniyatlarini gapirib bering.
18. Tabiiy va sun'iy yorug'lik nurlarining buyumga tushishi natijasida hosil bo'luvchi soya-yorug'lik munosabatlari to'g'risida ma'lumot bering.
19. Tus nima? Buyumdagи tus munosabatlari to'g'risida gapirib bering.
20. Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?
21. "Parallelopepid" nima?
22. To'g'rito'rburchak shakl qanday tuzilishga ega?
23. Oltitomonli prizma tuzilishi qanaqa bo'ladi?
24. Turli shakl, hajm ko'rinishiga ega geometrik jismlarga misollar keltiring.
25. Kub nima? U qanday tuzilish va ko'rinishga ega?
26. Kvadrat deganda qanaqa shaklini tushinasiz?
27. Sferik va yarimsferik shakl deganda nimalarni tushunasiz?
28. Doira nima-yu, aylana nima?
29. Shar tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
30. Tuxumsimon ko'rinishga ega bo'lgan shaklli narsalarga misollar keltiring.
31. Sharsimon predmetlardan nimalarni bilasiz?
32. Silindrni ko'rinishi, tuzilishi to'g'risida qanday ma'lumotlar bera olasiz?
33. Silindrsimon narsalarga misollar keltiring.
34. Silindr tik holatda bo'lganda, uning asosi qanday shakl ko'rinishiga ega bo'ladi?
35. Piramida ko'rinishi, tuzilishi heqida nimalarni bilasiz?
36. Piramida tik bo'lganda, uning asosi qanday tuzilish, shaklga o'xshaydi?
37. Piramida yotiq holatda bo'lganda, uning pastda, gorizontal satxda turgan joyi qanday shakl ko'rinishda bo'ladi?
38. Sharsimon, silindrsimon, kubsimon, parallelopepidsimon, prizmasimon, piramidasimon ko'rinish, tuzilishga ega narsalarga misollar keltiring.
39. Nechta tomonlamali prizma, piramidalarni bilasiz?

## ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. Б. Тожиев "Қаламтасвир асосларини ўрганиш". Ўзбекистон бадий тарбия муаллимлари ижодий уюшмаси. Тошкент-1994.
2. Б. Тожиев, Н. Исахожаева. "Қаламтасвир, рангтасвир ва композиция асослари". (Ўкув методик кўлланма) ТДПУ. Тошкент-2011.
3. Б. Азимова "Натюрморт тузиш ва тасвирилаш методикаси" Тошкент: "Ўқитувчи" 1984.
4. С.Абдирасилов, С.Махкамова, Н.Исаҳожаева. "Тасвирий санъат тўгараги" ШАРК, Тошкент 2012.
5. Бойметов Б., Толипов Н., Абдирасилов С. Тасвирий санъат. Чўлпон, - Т.: 2006.
6. Бойметов Б., Тожиев Б, "Қаламтасвир" фанидан маъruzalap matni. ТДПУ-2000.
7. Б. Тожиев "Композиция" фанидан маъruzalap matni. ТДПУ-2000.
8. К. Н. Аксенов. Рисунок. В помощь художнику-оформителю. Москва "Панорома". 1990.
9. Рисунок, живопис, композиция (хрестоматия. Составлен Н.Н.Ростовцев, С. Е. Игнатьев, Е.В.Шорохов.) Москва «Просвещение» 1989.
10. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
11. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
12. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
13. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
14. [tdpu-TRANET.Ped](http://tdpu-TRANET.Ped)

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
SHAKL.....	5
GEOMTRIK JISMLARNI PERSPEKTIVA QOIDALARI ASOSIDA TASVIRLASH.....	9
HAJMLI SHAKLNI TASVIRLASH.....	11
GEOMETRIK SHAKLDAGI PREDMETLAR SHAKLI, KUB .....	12
SILINDR.....	14
PRIZMA VA PIRAMIDA.....	15
SHAR.....	18
GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORTLARNI TASVIRLASH.....	20
BIRINCHI BOSQICH, JOYLASHTIRISH.....	22
IKKINCHI BOSQICH, QURISH.....	23
UCHINCHI BOSQICH, SHAKL HAJMINI KO'RSATISH.....	25
MURAKKAB NATYURMORTLARNI TASVIRLASH.....	27
UYDA MUSTQIL BAJARILADIGAN VAZIFALAR.....	28
MAVZULARGA OID QALAMTASVIR NAMUNALARI.....	31
TASVIRIY SAN'AT ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI.....	34
MUTAXASSISLSRNING QALAMTASVIR HAQIDAGI FIKRLARI.....	37
TAKRORI ASH UCHUN SAVOILLAR.....	38
ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	42

Adadi 300. Hajmi 2,5 b/t.  
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.

874=

0129957  
1

2 - yak  
3 - cow, ox, goat

5

